

**“TASDIQLAYMAN”**



Urganch innovatsion universiteti  
ilmiy ishlar va innovatsiyalar  
bo'yicha prorektori, dotsent

M.Masharipov

OB fevral 2025-yil

Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining **“Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi, Omon Matchon tavalludining 82 yilligi, Muhamud az-Zamaxshariy tavalludining 950 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 24-yanvardagi 53-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Urganch innovatsion universitetida «ALISHER NAVOIY MEROSI VA UCHINCHI RENESSANS» mavzusida 2025-yil 7-fevral sanasida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman**

## HISOBOTI

- 1. Anjuman mavzusi: «Alisher Navoiy merosi va uchinchi renessans».**
- 2. Anjuman maqomi:** Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman.
- 3. Ilmiy va ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazish uchun asos:** Xorazm viloyati ma'naviyat va ma'rifat Kengashining “Alisher Navoiy tavalludining 584 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligi, Omon Matchon tavalludining 82 yilligi, Muhamud az-Zamaxshariy tavalludining 950 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 880 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 24-yanvardagi 53-sonli bayoni
- 4. Anjumanning ilmiy yo‘nalishi, maqsad va vazifalari:**
  - **Alisher Navoiy ijodining adabiy-estetik o‘rni** – Navoiy asarlarining jahon adabiyotidagi ta’siri, badiiy tafakkurga qo‘sghan hissasi;
  - **Navoiy merosining tilshunoslik jihatidan tadqiqi** – Uning asarlaridagi til xususiyatlari, leksikografik tahlil, Navoiy davridagi turkiy til taraqqiyoti;
  - **Navoiy falsafasi va Uchinchi Renessans g‘oyasi** – Uyg‘onish davri madaniyati va Navoiy tafakkurining bugungi zamонавији jarayonlarga ta’siri;
  - **Alisher Navoiy va Sharq sivilizatsiyasi** – Uning davridagi ilmiy-falsafiy mактаблар bilan bog‘liqligi, boshqa Sharq mutafakkirlari bilan ijodiy aloqalari;
  - **Navoiy asarlarining tarjima va tadqiq etilishi** – Uning ijodiy merosining xorijiy tillarga tarjimasi va dunyo adabiyotshunosligidagi o‘rni;
  - **Uchinchi Renessans va yoshlar tarbiyasi** – Navoiy merosining yosh avlod ma'naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni, ta’lim va madaniyat taraqqiyotiga ta’siri;
  - Uchinchi Renessans jarayonida Navoiy merosining tutgan o‘rnini aniqlash;

- Alisher Navoiy ijodiy merosini chuqur ilmiy o‘rganish va tahlil qilish;
- Yosh olimlarni Navoiy merosini o‘rganishga jalb qilish va ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash;
- Alisher Navoiy asarlarini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertatsiyalar yaratish;
- Zamonaviy texnologiyalar yordamida Navoiy asarlarini ommalashtirish va targ‘ib qilish.

### **5. Muhokama qilingan muammolar:**

- Alisher Navoiy turkiy til uchun qo‘sghan hissasi;
- Navoiyning insoniylikka e’tibori va uni asarlaridagi timsoli;
- Navoiyning siyosatdagi o‘rni va tahlikali davrdagi oqilona qarorlari;
- Xorazm dostonlari va Alisher Navoiy dostonlaridagi uyg‘unlik;
- Xorazm ilm ahliga bo‘lgan Navoiyning ehtiromi;
- Navoiyning asarlarida nutq madaniyati masalalari.

### **6. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.**

#### ***Ilmiy samaradorlik:***

- **Alisher Navoiyning ilmiy va ma’rifiy merosi bilan bog‘liq yangi ma’lumotlar ochilishi:** Anjuman davomida tadqiqotchilar tomonidan ilgari e’tibordan chetda qolgan arxiv materiallari va asarlar o‘rganilib, yangi ilmiy natijalar taqdim etiladi.
  - **Akademik hamkorlikni kuchaytirish:** Alisher Navoiyga oid ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha mahalliy va xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan aloqalar mustahkamlanadi.
  - **Alisher Navoiy merosi bo‘yicha yangi ilmiy tadqiqotlar** – Uning ijodiy va falsafiy qarashlari zamonaviy ilmiy nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqiladi.
  - **Navoiy asarlarini lingvistik va adabiy jihatdan chuqurroq tadqiq etish** – Turkiy tillar rivojiga ta’siri va badiiy-estetik tahlili kengayadi.
  - **Navoiy merosining raqamlashtirilishi va yangi nashrlari** – Uning asarlari zamonaviy texnologiyalar yordamida keng ommaga taqdim etiladi.

#### ***Ijtimoiy samaradorlik:***

- **Yosh avlodning ma’naviy tarbiyasida Navoiy asarlarining o‘rni oshadi** – Uning ijodi orqali yoshlarga milliy g‘urur va qadriyatlar singdiriladi.
- **Madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib etish kuchayadi** – Navoiy ijodi asosida yangi madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi.
- **O‘zbek tili va madaniyatining xalqaro miqyosda nufuzini oshirish** – Navoiy merosining tarjimalari va tadqiqotlari orqali jahon ilmiy doiralarida e’tibor kuchayadi.
- **O‘zbek klassik adabiyoti bo‘yicha xalqaro hamkorlik rivojlanadi** – Turkiy tillar, fors-tojik adabiyoti va jahon madaniyati bilan bog‘liq tadqiqotlar kuchayadi.

#### ***Iqtisodiy samaradorlik:***

- **Turizm sohasida rivojlanish** – Navoiyga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijasida madaniy va ziyorat turizmi yo‘nalishlari rivojlanadi.
- **Ilmiy grantlar va loyihibar jalb qilinadi** – Navoiy ijodini tadqiq qilish bo‘yicha xalqaro va mahalliy grantlar qo‘lga kiritiladi.

– **Kitob va ilmiy nashrlar bozori kengayadi** – Navoiy asarlari va u haqidagi ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda nashr etilib, ilmiy nashriyotlarning faoliyati faollashadi.

– **Zamonaviy texnologiyalar va media orqali adabiy merosni tijoratlashtirish**

– Navoiy asarlari asosida filmlar, animatsiyalar va interaktiv media loyihalari yaratilib, madaniy mahsulotlar ishlab chiqariladi.

– **Ta’lim tizimida yangi kurslar joriy qilinadi** – Alisher Navoiy ijodi va Uchinchchi Renessans g‘oyalariga asoslangan yangi darslik va qo‘llanmalar tayyorlanib, ta’lim sohasi rivojlantiriladi.

Anjuman natijalari qisqa va uzoq muddatda milliy va xalqaro miqyosda ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan samaradorlik olib kelishi kutiladi.

## **7. Anjumanda soha mutaxassislarining, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ishtirok etishi:**

Mazkur Respublika anjumaniga universitet mutaxassislari, sohalarning malakali kadrlari bilan bir qatorda Toshkent shahridagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari, tashkilotlarining yetakchi olimlari, professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, tayanch doktorantlar va talabalar ishtirok etishdi.

## **9. Anjumanni o‘tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki:**

Anjumanda universitetning yetakchi mutaxassislari, boshqa oliy ta’lim tashkilotlari yetuk olimlari, professor-o‘qituvchilari ishtirok etishdi. Anjuman 7-fevral soat 10:00 da boshlanib, shu kuni 12:30 da o‘z nihoyasiga yetdi.

Anjumanni moderator sifatida universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Mansurbek Masharipov olib bordi.



Mansurbek Masharipov anjumanni ochib berish uchun so‘zni Urganch innovatsion universiteti rektori Ishmuratov Madamin Jumaboyevichga berdi. Rektor anjumanni qay darajada ilmiy sohada muhim mavzuda tashkillashtirilayotganligini e’tirof qilib quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdi:

– Buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning 584 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan bugungi anjumanimiz barchamiz uchun ulkan sharafdir. Ushbu anjuman Alisher Navoiyning bebaho ma’naviy merosini o‘rganish, uning jahon adabiyotidagi o‘rnini va zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini muhokama qilishga bag‘ishlangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy o‘z ijodi va falsafiy qarashlari bilan o‘z davrining haqiqiy renessans namoyandalaridan biriga aylangan. Uning asarlari nafaqat turkiy adabiyot ravnaqiga, balki, jahon adabiyoti rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, Navoiyning “Xamsa”si Sharq adabiyoti an’analarini mustahkamlab, jahon adabiyotidagi epik poema janrining yuksalishiga zamin yaratdi. Uning badiiy merosi g‘arbiy va sharqiy adabiyotshunos olimlar tomonidan chuqur o‘rganilib, hozirgacha turli tillarga tarjima qilinmoqda.

Bugungi kunda, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Uchinchi Renessans g‘oyasi Navoiy merosini yana-da chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish zaruratini yaqqol namoyon etmoqda. Zero, Navoiy kabi buyuk allomalarimizning asarlari va falsafasi bugungi kun yoshlariga ma’naviy boylik, intellektual salohiyat va ijtimoiy mas’uliyatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda Navoiyshunoslik sohasida muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan Naim Karimov, Vadud Mahmud, Abduqodir Hayitmetov, Burobiya Rajabova, Husaynxon Yahyo va Botirxon Valixo‘jayevlarni alohida e’tirof etish lozim. Ular Navoiyning siyrati, ma’naviy merosi, badiiy uslubi va adabiy-ijtimoiy faoliyatini har tomonlama tadqiq etib, ilmiy adabiyotga katta hissa qo‘shganlar.

Naim Karimov o‘z tadqiqotlarida Navoiyning insonparvarlik g‘oyalarni ochib bersa, Abduqodir Hayitmetov uning tilshunoslikka qo‘shgan hissasini atroflicha tahlil qilgan. Botirxon Valixo‘jayev esa Navoiy asarlarining poetik xususiyatlarini tadqiq etish bilan mashhur. Bu tadqiqotlar natijasida Navoiyning badiiy merosi nafaqat mahalliy, balki, jahon miqyosida ham o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.



Alisher Navoiyning ijodi jahon adabiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilinib, xalqaro miqyosda ham keng o‘rganilmoqda. Navoiyning g‘oyalari va she’riyatdagi mahoratlari jahon adabiyotidagi ko‘plab shoir va yozuvchilarga ilhom manbayi bo‘lgan.

Navoiyning inson haq-huquqlari,adolat va ma’rifatparvarlik borasidagi fikrlari, ayniqsa, Renessans davri mutafakkirlari bilan uyg‘unlik kasb etadi. Uning asarlaridagi umuminsoniy g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi ma’no-mohiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda Uchinchi Renessans g'oyalari hayotga tatbiq etilayotgan bir paytda, Navoiy merosi bu jarayonning muhim qismiga aylanmoqda. Uning ma'naviy merosi va ijodiy falsafasi yosh avlodni tarbiyalash, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda tayanch nuqta bo'lib xizmat qilmoqda.

Navoiyning asarlaridagi bilimga intilish, ma'rifatga bo'lgan hurmat, insonning ichki kamolotiga e'tibor bugungi kun talablari bilan hamohangdir. Uning ijodi Uchinchi Renessansning ma'naviy asoslarini mustahkamlaydi, yoshlarni Vatanga muhabbat, adolat va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Alisher Navoiyning boy ma'naviy merosi va uning jahon adabiyotiga qo'shgan ulkan hissasi biz uchun faxr manbayi hisoblanadi. Uning asarlari va falsafasi nafaqat o'tmish, balki, bugungi kun va kelajak uchun ham ahamiyatlidir. Navoiyshunoslik sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu buyuk allomaning merosini yana-da chuqurroq o'rghanish va uning asarlarini yangi avlodlarga yetkazishda muhim o'rinn tutadi.

Bugungi anjumanda Alisher Navoiyning adabiy merosi bo'yicha olib borilayotgan xalqaro tadqiqot ishlari, uning jahon adabiyotida tutgan o'rni hamda g'oyalarini yosh avlod ongiga qanday singdirish mumkinligi haqida fikr almashamiz.

Ushbu ilmiy-nazariy anjumandagi barcha taqdimotlar va muhokamalar Alisher Navoiy merosining yangi qirralarini ochib berishga xizmat qilishiga ishonaman. Barchangizga ijodiy barkamollik va ilmiy muvaffaqiyatlar tilayman.

Alisher Navoiy merosi va Uchinchi Renessans g'oyalari bizning ma'naviy kamolotimiz va intellektual salohiyatimizni yana-da mustahkamlasin!

E'tiboringiz uchun rahmat! – deya so'zini yakunladi.



Moderator ustozning bildirgan fikrlari uchun rahmat aytib, Alisher Navoiy o‘z ijodida insonlarni hayratga soladigan purma’no tuyuqlar yozganligiga barchaning e’tiborini qaratdi. Jumladan:

*Tig‘i ishqing yorasidur*

*butmagan*

*Dardini har kimga aytib*

*butmagan*

*Hajr sahrosidur ohim*

*o‘tidin*

*Anda gul yoxud giyohe*

*butmagan.*

tuyuqni misol keltirib undagi so‘zlar uyg‘unligi va ma’nosini bilan boshqa tuyuqlardan ajralib turishini aytib o‘tdi.



Shundan so‘ng Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan videorolikka navbat berildi. Videorolikda uning turkiy tilning rivojiga qo‘sghan hissasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirildi. Buyuk dostoni “Xamsa” haqida fikrlar bildirildi. Bir qancha asarlari sanab o‘tildi va ularning ma’nolari bo‘yicha qisqa ma’lumotlar berildi. Videorolik “Kelmadi” radifli g‘azali bilan yakunlandi.

Videorolik yakunlangach, moderator har yili Alisher Navoiy tavalludini “**Alisher Navoiy merosi va uchinchi renessans**” mavzusida doimiy anjuman sifatida o‘tkazish bo‘yicha taklif bildirdi va anjuman qatnashchilari bu taklifni ma’qullashdi. Shu fikrlardan so‘ng so‘z Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborovga berildi. Professor o‘zining “Alisher Navoiy asarlarida turkiy ruh ifodasi” mavzusidagi ma’ruzasini anjuman ishtirokchilariga o‘qib eshittirdi:

– Jahon estetik tafakkurining buyuk namoyandasini, hazrat Alisher Navoiy hayoti va ijodining asosiy konsepsiysi, birinchidan, dunyoning eng boy tillaridan biri hisoblangan turkiy tilning qadri nechog‘liq buyuk ekanligini nazariy va amaliy jihatdan isbotlash, ikkinchidan, turkiy millatning sha’ni va shuhratini munosib darajada himoya qilish bo‘lgani ayon. Alisher Navoiy badiiy ijod maydoniga kirgan XV asr ikkinchi yarmida turkiy til nafis adabiyot tili bo‘lolmasligi, bu tilda “Xamsa” singari gigant asarlarni yozish imkoniy yo‘qligi haqida baralla so‘zlana boshlagan edi. Tabiiyki bunday vaziyatga chinakam millatparvar ijodkor befarq qarashi mumkin emasdi. Hazrat Alisher Navoiy bunday nomaqbul holatga dastlab **Sayyid Hasan Ardasherga** yozgan she’riy maktubida shunday yozadi:

**Men ul menki, to turk bedodidur,  
 Bu til birla to nazm bunyodidur.  
 Falak ko'rmadi men kebi nodire,  
 Nizomiy kebi nazm aro qodire.  
 Ne nazme der ersam meni dardnok-  
 Ki, har harfi bo'lg'ay aning durri pok.  
 Yetar Tengridin oncha quvvat manga-  
 Ki, bo'lmas bitiriga fursat manga.**

Ushbu maktubga e'tibor qaratishning asosiy sabablaridan biri Hazrat Alisher navqiron 24 yoshida yozilgan. Ikkinchidan, bu maktubda buyuk mutafakkir hayoti va ijodining asosiy konsepsiyasi turkiy tilning adabiy til sifatidagi imkoniyati nechog'liq yüksak ekanini isbotlash va millatning shon-u sharafini or-u nomusini himoya qilish ruhiyatini quvvatli ifodalangan.



Professor yuqoridagi she'riy maktubni izohlar ekan bunda turkiy tilga nisbatan qilingan zulm haqida aytib o'tdi. Alisher Navoiy 24 yoshida yozgan she'ridan xulosa chiqarish mumkin ediki, uning qalami turkiy til dunyosida o'chmas asarlar yaratib, butun dunyoga turkiy til qudratini namoyish qilolardi.



Moderator keyingi navbatni Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori **O‘razboyev Abdulla Durdibayevichga** “Alisher Navoiyning “Nasoyimu-l-muhabbat” asarida xorazmlik valiyalar zikri” mavzusida ma’ruza o‘qishlari uchun berdi. Professor tashkillashtirilgan ilmiy-amaliy anjumandan mammunligini, shunday ilmiy uchrashuvlarni ko‘paytirish kerakligini hamda yosh olimlar, xususan, talabalarni anjumanda ishtirokini oshirish kerakligini aytib o‘tdi. Shuningdek, anjuman uchun tayyorlagan ma’ruzasini o‘qib eshittirdi:



— Alisher Navoiy barcha jahon siymolar kabi insoniyat tafakkur xazinasiga qo‘sghan hissasi, o‘z ijodiy faoliyati bilan bir xalq ma’lum bir tarixiy davr muayyan davlat doirasiga sig‘maydigan umumbashariyat farzandidir. U zotning shaxsi va ijodi jahon miqyosida nechog‘liq ulug‘lansa, biz xorazmliklar ham Hazrat Navoiyning vohamizga, uning mehnatkash xalqiga, bu zamindan yetishib chiqqan buyuk siymolarga alohida hurmat, o‘zgacha ehtirom bilan qaraganidan faxrlanib yuramiz. Masalan, Hazratning 750 dan ortiq aziz avliyolar yodi zikr etilgan “Nasoyim ul-muhabbat” asarida eng ko‘p o‘rin vatandoshimiz Shayx Najmaddin Kubroga ajratilgani alohida e’tiborga loyiq. Shuningdek, Navoiy tazkiralarida Pahlavon Mahmud, Shayx Xusayn Xorazmiy, Shayx Olavuddin Xorazmiy, Shayx Abulhasan Ishqiy kabi vatandoshlarimiz alohida ehtirom bilan tilga olinganligi bejiz emas. Endi bir narsaga e’tibor qarataylik, Alisher Navoiy shunchalik ehtirom bilan tilga olgan valiyarning biz vorislari ular haqida yetarli ma’lumotlarga egamizmi? Demak, Alisher Navoiy bugungi kunda ham biz uchun o‘zimizni o‘zimizga tanitmoqda, ruhoni saboq bermoqda.

Ma’ruza davomida professor Alisher Navoiy ijodida o‘rgangan avliyolar, shayxlar bo‘yicha ma’lumotlar keltirdi. Bugungi kunda ham yetuk darajada o‘rganilmagan avliyolar haqida biz faqat Alisher Navoiyning ijodi orqali bilishimiz mumkinligini tanqidiy aytib o‘tdi.



Shundan so‘ng universitet “O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasi mudiri, dotsent Ollayorov Quvondiq Madyorovichga berildi. U o‘zining “Xorazm dostonlari va Alisher Navoiy dostonlarining umumiy va farqli jihatlari” mavzusidagi ma’ruzasini anjuman ishtirokchilariga o‘qib eshittirdi:

– O‘zbek adabiyoti asrlar davomida boy tarixiy va madaniy meros yaratgan. Xususan, Xorazm dostonlari va Alisher Navoiy dostonlari Sharq adabiyotining yorqin namunalari bo‘lib, ular o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Har ikkala dostonlar ham o‘ziga xos badiiy uslubga ega bo‘lib, ular orqali insoniy fazilatlar, sevgi, vatanparvarlik, mardlik kabi qadriyatlar yuksak darajada ifodalanadi. Xorazm



dostonlari ham, Navoiy dostonlari ham xalq og‘zaki ijodi an’analaridan foydalangan. Masalan, ular orasida qadimiy rivoyatlar, afsonalar va xalq hikmatlari keng qo‘llaniladi. Har ikkala yo‘nalish ham odob-axloq, adolat, ezhulik va muhabbat mavzulariga asoslanadi. Xorazm dostonlari va Navoiy dostonlari asosan aruz vaznida yozilgan bo‘lib, ularning ritmik va musiqiyligi yuqori darajada namoyon bo‘ladi, deya Xorazm dostonlari va Alisher Navoiy dostonlaridagi uyg‘unlik, hamohanglikni ochib berdi.

Keyin so‘zga universitet jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i, filologiya fanlari nomzodi **Xudoyberganov Ravshan Yusupovich** o‘zining “**Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida nutq madaniyati masalalari**” mavzusidagi ma’ruzasi bilan chiqdi. Ma’ruzada Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillar mahbubi”) asarida inson axloqi, odob-axloq qoidalari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va nutq madaniyatiga oid qimmatli fikrlarini bayon qilganligi aytildi. Asar nasrda yozilgan bo‘lib, unda insoniy fazilatlar bilan birga nutqning ahamiyati va uning jamiyatdagi o‘rni haqida ham muhim mulohazalar keltirilganligiga



alohida urg‘u berildi. Navoiy nutq madaniyatini insonning aqli va ma’naviy kamoloti bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, inson o‘z so‘zi orqali ma’naviy jihatdan yuksalishi yoki aksincha, obro‘sini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli, so‘z kishining shaxsiyatini belgilashini, noo‘rin so‘z insonni sharmanda qilishini, donishmandlik so‘z orqali namoyon


bo‘lishini, ortiqcha va ma’nosiz gapirish inson obro‘siga putur yetkazishini aytib o‘tdilar. Ushbu mavzuda talaba-yoshlar o‘zini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi va ma’ruzachi tomonidan tegishli ko‘rsatmalar olishdi.

Shundan so‘ng, ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti dekani, dotsent **Satimov Bahodir Mangliboyevich** so‘zga chiqdi. U Alisher Navoiyning siyosatda tutgan o‘rni, Husayn Boyqaro bilan ularning do‘stligi haqida fikrlar bildirdi. Davlat boshqaruvida do‘sti Husayn Boyqaroga bergen fikrlari va muammolarni hal qilishdagi

mahoratlari aytib o‘tildi. Dushmanlarning aralashuvi bilan ikki do‘sit orasiga tushgan sovuqchilik va keyinchalik hammasi barham topishi to‘g‘risida fikrlar bildirildi. Shuningdek, ushbu zotni aynan tarix uchun qay darajada ahamiyatli ekanligi, ta’limtarbiya uchun qo‘sghan hissalari alohida tilga olindi.



Dotsent **Bahodir Satimovning** ma’ruzasidan keyin so‘z Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasini **Matkarimova Salomat Qo‘ziyevnaga** berildi. Salomat Matkarimova o‘zining “**Buyuk shoir va mutafakkir hazrat Alisher Navoiy dahosiga ehtirom**” mavzusidagi ma’ruzasini o‘qib eshittirdi. Salomat Matkarimova so‘zni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ‘Navoiy kunda kerak, har birimizga kerak. Uning har bir asari, har bir g‘azali, har bir so‘zini el manfaatiga yetkazaylik” so‘zlar bilan boshladi. Shuningdek, bugungi ta’limda bog‘chadan tortib oliv ta’lim tizimigacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarda Navoiyning ijodini o‘rganish amalga oshirilayotganligini aytib o‘tdilar. Buning asosiy sababi Hazratning ijodi birgina o‘zbek adabiyoti darajasida emasligi keng ko‘lamli ijod ekanligini aytdilar.



Shundan so‘ng universitet magistranti Karimova Bahora so‘zga chiqib, “Navoiy ijodida na’t talqini” mavzusidagi ma’ruzani o‘qib eshittirdi:

- Na’tlarning ilk namunalari dastlab qadimgi arab adabiyotida vujudga kelgan. Bunda na’tlarga asos bo‘lgan madh mazmunidagi badiiy matnlarning, asosan, ikki xil turi kuzatiladi. Ularning birinchisi – o‘tmishda yashab o‘tgan yoki zamonaning buyuk kishilarini, hukmdorlarni eslash, ulug‘lash mazmunidagi madhiya-qasidalar bo‘lsa, ikkinchi turkum madhlarda shoirlar turli munosabat bilan samimiyl do‘slik, muhabbat va ezgulikka chorlovchi hikmatlarni ta’rif-tavsif etganlar. Payg‘ambarimizning madhida bitilgan na’tlar adabiyotni haqiqiy estetik ideal kuychisiga aylantirdi. Badiiy adabiyot o‘z ifoda shakllarini saqlagan holda, mazmun-mohiyatda butunlay yangilandi, haqiqiy ma’nodagi so‘z san’ati va insonshunoslikka aylandi. Komillik masalasi, komil inson vasfi adabiyotning bosh vazifasi o‘laroq, payg‘ambarni madh etish, unga muhabbat izhor qilish, ezgu fazilatlarini ulug‘lash shoirlarning oliv maqsadiga aylandi. Temuriylar davrigacha, asosan, didaktik xarakterga ega bo‘lgan na’tlar ko‘p uchraydi. Navoiy ijodida shoirning adabiy-estetik, diniy-tasavvufiy va komil inson haqidagi qarashlarini belgilovchi mazmun ustuvorlik qiladi.

Na’t – arabcha so‘z bo‘lib, tavsif etmoq ma’nosida sifat va vasf ma’nolarida ism o‘laroq qo‘llaniladi. Lug‘aviy ma’nosи “bir kishidagi bor narsalarni tasvirlamoq, uni mubolag‘ali tafsiflash”, “VASF, hamd-u sano bilan barobar ta’rif-tavsif etmoq” yoki “bir narsaning madhini aytib, sifatlashdir” degan ma’nolarni anglatadi.

Adabiy tur va janrlar nazariyasiga oid qarashlarda – madh, maqtash; yaxshi xislatlar vasfi, sifat, go‘zal sifat deb ta’riflanadi. Alisher Navoiy asarlari lug‘atida na’tga shunday ta’rif berilgan: “Na’t — payg‘ambarni madh etish, yaxshi sifatlarini aytib maqtash”. Istiloh sifatida payg‘ambarimiz vasfi, shaxsiyati, payg‘ambarlik faoliyati va me’roj bilan bog‘liq voqeа-hodisalarning romantik ko‘rinishdagi shoirona, so‘fiyona, oshiqona va orifona talqinidir. Ayni paytda, oshiqning ma’shuq vaslida yongan zavq-u shavqi, ishq yo‘lida chekkan azoblari, “hisob-kitob” kuni komillar komili bo‘lgan zotning shafoatiga umid bilan

intilgan ko‘ngil  
nolalarining ramziy  
majoziy tasvirlari, ilohiy  
go‘zallik sirlari kashshofi  
bo‘lgan ishqning ta’rifi  
hamda komillikning oliv  
maqomini egallagan,  
jisman zaminda, qalban esa  
Haq huzurida bo‘lgan  
Zotga bo‘lgan  
muhabbatdir. – degan  
fikrlar bilan so‘zini  
yakunladi.



Navbat universitet tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi Ro‘za Otaboyevaga berildi. Ro‘za Otaboyeva o‘zining “Navoiy va Husayn Bayqaro do‘stligi: adabiyot va siyosat uyg‘unligi” ma’ruzasini o‘qib eshittirdi:

– Nizomiddin Mir Alisher Navoiy – dunyo tafakkuri tarixida o‘zining adabiyotga daxldor asarlari hamda ularda tarannum etgan ezgu g‘oyalari bilan hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san’atkoridir. Adabiy va ilmiy merosi, shuningdek, yuksak insoniy fazilatlari bilan barchaga o‘rnak bo‘lib kelayotgan Alisher Navoiy ijodining rang-barangligi barcha siyosiy tuzumlardan ustun turib, vaqt sinovidan o‘tgan. Uning so‘z qudrati va go‘zal o‘zbekona ifodasi umumbashariy madaniyatning bebafo qismiga aylanganligi, shubhasiz, haqiqatdir.

Shu bois, Navoiy ijodi va faoliyatini o‘rganish yoshlar ma’naviyatining milliylik va insonparvarlik zaminida shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Aynan uning ijodi o‘zbek mumtoz adabiyoti va milliy ma’naviyatining rivojlanish qonuniyatlarini anglashda kalit vazifasini bajarib, yoshlar tafakkurini mustahkamlash hamda adabiyot tarixining eng muhim davrlari haqida to‘liq bilim olishlariga yordam beradi.

Temuriylar uzoq yillar davomida Turon zaminida hukmronlik qilib, ilm-fan, madaniyat va san’at rivojiga katta hissa qo‘shtan sulolalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, shoh va shoir Husayn Boyqaro hamda uning bolalikdagi do‘sti, keyinchalik esa davlat boshqaruvida eng yaqin maslahatchisiga aylangan Alisher Navoiy ilm va madaniyat rivojida muhim rol o‘ynagan. “Amir ul-maqarrab” – ya’ni “shohning eng yaqin kishisi” maqomiga erishgan Navoiy Husayn Boyqaro bilan birga ilm ahlini qo‘llab-quvvatlaganligi sababli bu davr Hirotning madaniy va ilmiy hayotining eng yuksak cho‘qqisiga chiqishiga sabab bo‘ldi.

Davlatshoh Samarqandiyning ta’kidlashicha, bu davrda Hirot olimlar, mashhur shoirlar va tasavvufshunoslar jamlanadigan yirik ilmiy markazlardan biriga aylangan. Husayn Boyqaro doimo kambag‘allar va ehtiyojmand insonlarning holidan xabardor bo‘lib, ularga ko‘mak berib turgan.

Ushbu ilmiy-madaniy muhitda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Mirxon kabi shoir, san’atkor va olimlar porlashdi. Navoiy fors tilida yozilgan g‘azallarini jamlab, olti ming baytdan ortiq she’rlarni o‘z ichiga olgan “Devoni Foni”ni yaratdi. Bu devonda Navoiy o‘zining ijodiy qarashlarini yuksak saviyada ifoda etgan bo‘lib, g‘azallarining har biriga alohida sarlavha qo‘ymagan. Adabiyot tarixida bu an'anani boshlab bergen shoir aynan Navoiy edi. Ushbu devonda u Husayn Boyqaroga yuksak baho berib, o‘z ijodiy maqsadlariga yetishishida shohning qo‘llab-quvvatlovi uchun minnatdorlik bildirgan.

Husayn Boyqaro Navoiyning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi bo‘lib, uning ijodiy faoliyatiga ham, davlat boshqaruvida ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Navoiyning asarlari yaratilishida Husayn Boyqaro muhim rol o‘ynagan bo‘lib, hatto bu she’rlarning ilk o‘quvchisi ham aynan Husayn Boyqaro bo‘lgan.

Shuningdek, Husayn Boyqaro davrida ko‘plab bunyodkorlik ishlari ham amalgalashirildi. Xuroson bo‘ylab qurilgan kutubxonalar va turli inshootlar orasida Alisher Navoiy tomonidan barpo etilganlari alohida ajralib turadi. Navoiy butun boyligini xalq

manfaatlari yo‘lida sarflab, 60 dan ortiq bino, 20 ga yaqin hovuz, 16 ta ko‘prik, 9 ta hammom, 20 ta masjid va ko‘plab madrasalar, xonaqohlar barpo etgan. U umrining so‘ngida barcha mol-mulkini vaqf sifatida topshirgan.

Sulton Husayn Boyqaro ilm-fanni rivojlantirish yo‘lida Alisher Navoiyning o‘z yonida bo‘lishini doimo xohlagan va umrining oxirigacha unga hurmat bajo keltirgan. Alisher Navoiy ham do‘siga ulkan mehr va ehtirom bilan munosabatda bo‘lib, hayotining so‘nggi yillarida, hatto, Husayn Boyqarodan “umrimning qolgan qismini Ansoriyning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o‘tkazishimga izn bering” deya ruxsat so‘ragan. Ushbu xatti-harakat Hirot aholisi orasida katta ta’sir qoldirib, ko‘pchilik bu ishni odat sifatida qabul qilgan, - deya siyosat va adabiyotda tengi yo‘q hazrat uchun fikrlarini bildirdi.



Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy nafaqat til uchun, balki, millat uchun ham uning rivoji uchun ham mislsiz hissa qo‘shgan, siyosat bobida ham o‘zining iqtidorini mukammal namoyon qilgan zotdir. Uning ilmiy merosini o‘rganish yoshlar uchun kelajakni yaratishda mustahkam boydevor vazifasini bajaradi deya bemalol aytishimiz mumkin

Anjuman yakunida barcha ishtirokchilarga seritifikatlar taqdim etildi.









**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo‘limi boshlig‘i**

**A.Abdullayev**

**Ijtimoiy-gumanitar fanlar va  
pedagogika fakulteti dekani**

**dots. B.Satimov**

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo‘limi bosh mutaxassisi**

**Sh.Yusupova**

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va  
ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash  
bo‘limi bosh mutaxassisi**

**S.Qo’shchanov**